

AVESTO

1. Avesto so'zining o'zagi nima? **J: "sto"**
2. Avesto so'zining ma'nosi? **J: "belgilangan, joriy etilgan nizom, tartib-qoida"**
3. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy mushtarak yozma yodgorligi qaysi? **J: Avesto**
4. Avesto qaysi dinning muqaddas kitobi? **J: zardushtiylik**
5. Zardushtiylik diniga qayerdagi xalq e'tiqod qilgan? **J: O'rta Osiyoda yashagan qadimgi aholining asosiy qismi**
6. Avestodagi ma'lumotlarning qadimgi qismlari qaysi davrga taalluqli? **J: miloddan avvalgi 3000-2000-yillarga**
7. Avestoning qadimgi qismlari nima deyiladi? **J: Gotlar (Gohlar) va Yashtlar**
8. 973-1048-yillarda yashagan qomusiy olim kim? **J: Beruniy**
9. Beruniy qaysi asarida "Avesto" haqida ma'lumot bergan? **J: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik" asarida**
10. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik" asarida qanday ma'lumotlar keltirilgan? **J: Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning 12ming goramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri "Avesto"ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi. "Avesto" 30 nask edi. Majusiylar qo'lida 12 nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini "haftiyak" deganimizdek, nask "Avesto" bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir"**
11. "Avesto" qanday asar? **J: O'sha davr tarixi, fani, madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asar.**
12. Avesto qaysi tilga tarjima qilingan va sharhlar yozilgan? **J: pahlaviy tiliga**
13. Avestoni o'zbek tiliga o'girgan tarjimon(lar) kim? **J: Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov**
14. Mehr yasht so'zining ma'nosi? **Quyoshga madhiya**
15. Avestodagi alohida qismning nomi? **J: Yasht**
16. Avestoda Mitra kim? **J: Quyosh xudosining nomi. Kuch-qudrat va baxt-saodat ramzi**
17. Mitra kimlarni "qo'lin ortidan tutib, ko'zlarin ko'rmas qilar, quloqlarin kar qilar, oyoqlarin shol etar?" **J: so'zga xoin odamlarni**
18. Avestoda Mitra qanday ta'riflangan?
 - otlari serg'ayrat
 - Keng tuyeqdor otli
 - Zich saflarni yorguvchi
 - Yaylovi cheksiz
 - Tik qomat va uyg'oq, o'tkir ko'z shijoatkor
 - O'lmas
 - Adadsiz ko'zlaribor, qudratli va bilgich u, yolg'oniyo'q qilgich u
 - Kim yordamga chorlasa, doim yordamga tayyor
 - Maqtovlarga loyiq zot, sharafga loyiq
 - Yuz zarbli asbob tutgan
 - Dunyonis asraguvchi, soqchi, qo'riqchi, borliqni asraguvchi
 - Yag'rindor ulug' sarboz
 - Ezgu va qudratli, samoviy va afzl, eng rahmdil va ajib, makoni osmonda
 - Nur yog'ilgan porloq yuz, go'yoki Zuhul yulduz
19. Avestoda Ahura Mazda kim? **J: Zardushtiylik e'tiqdining xudosi. U dinda yaratuvchi, xoliq, yakka-yu yagona xudo**
20. Avestoda tilga olingen tog'? **J: Xara tog'i**
21. Xara tog'idagi cho'qqilardan birining nomi? **J: Harati**
22. Avestoda qayerga zulmat ko'tarilolmasli aytildi? **J: Xarati cho'qqisiga**
23. Qayerda abadiy avliyolar makon tutganlar? **J: Xaratida**
24. Mitra kimlar yordami bilan yolg'onchilarni o'ldiradi? **J: Qudratli Sraosha va Hikmatli Narya Sanha bilan**
25. Sraosha kim? **J:**
 - Namoz va e'tiqod ishlarining noziri
 - Odamlarga qabohat bilan kurashishda madad beruvchi ma'bud
 - Rahnu bilan birgalikda o'lganlarni so'roq qilib, ularning gunoh-u savoblarini o'z tarozularida tortadi
26. Avestoda tilga olingen Narya Sanha kim? **J:**
 - Mifologik qahramon
 - Mitranning yordamchisi
27. Xurmuzd kim? **J: Ahura Mazdaning 2-nomi**
28. Ahura Mzdanining mangu makoni, jannat deb qayer tilga olingen? **J: Sharaf uyi**
29. Qanday odamlar Mitradan yordam ololmaydi? **J: so'z ustidan chiqmaslar**
30. Kimlar savobdan bebahra, baxtdan mahrum? **J: yolg'onchi**
31. Tezyurar arobada Mitra bilan kimlar hamrohlik qiladi? **J: Ashi va Arta**
32. Ashi kim? **J: baxt va omad homiysi**
33. Arta kim? **J: Haqiqat va iyomon ilohi**
34. Avestoda Zardushtga qadar bo'lgan kohin-shohlar nima deb yuritilan? **J: Kaviyilar**
35. Kayoniyarning ilohiy va muqaddas hokimiyatni va davlat haqidagi taassurotlarini mujassamlashtirgan obraz? **J: Xvarno**
36. Xvarno so'zi keyinroq qaysi so'z bilan ifodalangan? **J: far**
37. Avestoda yer yuzining odamlar yashaydigan eng go'zal qismi deb qayer tilga olingen? **J: Xvanirasha**
38. Avestoda tilga olingen Xvanirashani qayerga nisbat berish mumkin? **J: O'rta Osiyo**
39. Mitra arobasida qayerdan boshlab parvoz qilgan? **J: Kunchiqardan**
40. Mitra bilan birgalikda kim aroba haydar edi? **J: Ashi**
41. Avestoda kim Ahuraning hilqati deya tilga olingen? **J: Bahrom (Varaxran)**
42. Avestoda kim "Gazabkor qobon misol, o'tkir tishli, serjahl Sanchilsa o'ldirguvchi Qoziq tishlari keskir. Quturib hech yo'latmas, Jahldor, yuzi ola, oyoqlari temirdan – oldi ham orqasi ham, Tomiri ham temirdan, quyrug'I ham temirdan, jag'lari ham temirdan..." deb ta'riflangan? **J: Bahrom (Varaxran)**
43. Avestoda aytlishicha, dushman hayotining tirkagi nima? **J: umurtqasi**
44. "Hujum qilaroq jadal, O'qdek otilar yovga, Matonat-la yiqrar u, yog'iyning yorib ko'ksin. Dushman umurtqasini, hayotin tirkagini Majaqlab buzmaguncha, Yovni o'ldirdim deya taskin topmaydi ko'ngli" Ushbu ta'rif kimga tegishi? **J: Bahrom**

Tuzuvchi: Ma'muraxon Madaminova